

# **Turkiyaga tashrif buyuruvchi yo'lovchilar uchun yangilangan talablar**

**2020 27 Dekabr**

Turkiya Sog'liqni saqlash Vazirligi kirish talablarining amalga oshirilish muddatini o'zgartirdi va 30-dekabrden Turkiyaga tashrif buyurayotgan yo'lovchilar uchun yangilangan talablarni e'lon qildi.

Hurmatli yo'lovchilar!

1. Turkiya Sog'liqni saqlash Vazirligi chet eldan Turkiyaga tashrif buyurayotgan 6 va undan yuqori yoshdagi aviayo'lovchilar 30-dekabrden boshlab, COVID-19 uchun PZR SARS-COV-2 usuli bilan, Turkiya chegarasini kesib o'tishdan kamida 72 soat oldin topshirilgan test natijalari ma'lumotnomasini majburiy ravishda taqdim etishlari lozimligini e'lon qildi.
2. PZR SARS-COV-2ga manfiy natijali PZR-testni taqdim etmagan yo'lovchilar, chegarani kesib o'tishda ko'rsatilgan (uy, mehmonxona va boshqa) manzil bo'yicha 7 kunlik karantinga olinadi. Turkiyadagi yashash manzilini ko'rsatmagan shaxslar, Turkiya sog'liqni saqlash Vazirligi tomonidan ajratilgan joylarga joylashtiriladi.
3. 7 kunlik karantindan so'ng SARS-COV-2ga PZR-testi musbat natija bergan yo'lovchilar Turkiya Sog'liqni saqlash Vazirligining COVID-19 amaldagi talablari asosida davolanadilar.
4. Mazkur choralar 2021-yilning 1-martiga qadar amal qilladi.